

ONA TILINI O'QUV PREDMETI SIFATIDA O'RGANISH TAMOYILLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7542739>



ELSEVIER



**Ziyudinova Gulnoza Iqboljon qizi**  
Andijon davlat pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti kafedrası  
o'qituvchisi



**Abstract:** Umumiy o'rta ta'lim maktablari ona tili o'qituvchilarining ona (o'zbek) tilini o'quv predmeti sifatida o'rganish tamoyillari puxta bilishlari dars berish jaraonini osonlashtiradi. O'quvchilarga o'quv dasturida belgilangan mavzularni o'zlashtirishlari, matn va uning turlari ustida ishlash jarayonlari qiziqarli tus oladi. Ona tilining shaxsni komillikka eltuvchi qirralari ochiladi.

**Keywords:** muloqot, uslubiy tamoyil, ona tili, muloqot vositasi, tilning kommunikativ funksiyasi, til birliklari, so'z qo'llash, mashqlar, trening matnlari, lisoniy hodisa, samarali nutq faoliyati, muloqot tamoyili, til stereotiplari, vaziyatni qo'lga olish, kommunikativ yondashuv, lisoniy madaniyat

**About:** FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

**Received:** 16-01-2023

**Accepted:** 16-01-2023

**Published:** 22-01-2023

## Kirish

Muloqot – ona tilini o'rganishning asosiy uslubiy tamoyili hisoblanadi: bunda ona tili, bir tomondan, bilish obyekti sifatida, ikkinchi tomondan esa, muloqot vositasi sifatida o'rganiladi. Tilning kommunikativ funksiyasi asosiy o'ringa chiqariladi, bu til birliklari haqida bilimlarni tizimli olish imkonini beradi, shu bilan birga, ongli va avtomatik so'z qo'llanilishini imkon darajasida samarali uyg'unlashtiradi.

Mashqlar, trening matnlari va boshqa fan darslarida olingan bilimlar, muloqot xarakteridagi vaziyatlar, ona tilini o'qitishning asosiy uslubiy tamoyillari hisoblanib, ular, birinchidan, asossiz takrorlanishlardan qochish va ikkinchidan, til materialini boshqa fan materiallari bilan taqqoslash imkonini beradi. Natijada o'quvchilar o'z ona tilidagi nozik lisoniy hodisalarni hushyorlik bilan idrok etish orqali nutq madaniyatini shakllantiradilar va zamonga mos takomillashtirib boradilar.

Turli uslublar va janrlarda yaratilgan matnlar, birinchi navbatda o'zbek yozuvchilarining asarlari, shu bilan birga, tarixiy, biologik, geografik va boshqa sohalarga oid matnlardan foydalanish samarali nutq faoliyati bazasini shakllantiriladi, o'quvchilarga turli fanlar terminologiyasi bilan tanishish uchun imkoniyat yaratadi.

O'quv matnlari va vaziyatlariga tayanib ish olib borish nafaqat nutqiy, balki lisoniy, ijtimoiy-madaniy va strategik yo'nalishlarni ham rivojlantiradi.

**Asosiy muloqot tamoyili til stereotiplari** – aniq hayotiy vaziyatlarga oid standart iboralar, muloqot formulalarini **bilish**, o'rganishni o'z ichiga oladi.

Amaliy bilimlar dinamik stereotiplar shaklini oladi, ularni o'zlashtirish ham o'qitish mazmuniga kiradi.

Ona tili darslarida, til materialini taqdim etishda, maktablarda mavjud an'anaviy tus olgan ta'limning rasmiy tasniflash yo'nalishidan qochib, o'quv va ijodiy xarakterdagi mashqlarga ustunlik berish kerak.

Ona tili haqidagi nazariy ma'lumotlarga bunday yondashuv ularning soddalashuviga olib kelmaydi. Balki muayyan nutqiy faoliyatda olingan bilimga bo'lgan talab til haqidagi bilimlarni samaraliroq qiladi va o'rganishni puxtalashtiradi.

**Ijtimoiy-madaniy yo'nalishni** e'tibordan mutlaq chetga chiqarib bo'lmaydi. U ta'limning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Inson, jamiyat hayotiga doir bilimlarni tildan (tarix; moddiy va ma'naviy madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari; milliy, irqiy, ijtimoiy va hududiy farqlanish; iqtisodiy muammolar, muloqot vositalari va b.), tabiat (atrof-muhit, o'simlik va hayvonot dunyosi muammolari, yashash uchun kurash va boshqalar)ni o'zlashtirish va uzatishga qaratilgan. Ushbu yo'nalishning mazmunini diqqat va e'tibor bilan tanlangan sara matnlar tashkil etadi. Ularning universal ro'yxatini ona tili o'quv dasturlariga tayanib tuzish mumkin.

**Strategik yo'nalish** muayyan nutq vaziyatlarida puxta muloqot va o'zaro tushunishga yordam beradigan bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalarni shakllantirish va takomillashtirishni nazarda tutadi. Ushbu yo'nalishning asl mazmuni o'zaro muloqot muammolarini hal qilish uchun eng samarali strategiyalardan unumli va to'g'ri foydalanishga yo'naltirilgan.

Bu yerda ongli va axloqiy harakatlarni o'rnida amalga oshirishni o'rgatish muhim rol o'ynaydi, Masalan, vaziyatni qo'lga olish (muloqotga kirishishdan oldinroq suhbatdoshining maqsad va vazifalarini bilish, uning qanday verbal va noverbal nutqiy harakatlarni amalga oshirishi mumkinligini taxmin qila olishi, harakatlar rejasini tuzish), axloqiy dasturi hamda verbal va noverbal xatti-harakatlarga nisbatan tanqidiy munosabat asosida harakatlar ustidan nazoratini ishga tushirish. Ushbu holatlarda samarali muloqot qoidalari: haqiqatni gapirish, aniq bayon qilish, ma'lumotni yetarli darajada taqdim etish, muxtasarlikka amal qilish, shuningdek, xushmuomalalik va bag'rikenglik kabi psixologik omilni hisobga olish kabilarni bilish ayni muddao bo'ladi.

**Demak, ona tilini o'qitishga kommunikativ yondashuv va nutq yo'nalishining hukmron pozitsiyaga o'tishi til va nutq materialini uyg'unlikda taqdim etish mumkinligini nazarda tutadi.**

O'qitish jarayonida til va nutq materialini birlashtirish amaliy vazifa sifatida namoyon bo'ladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida "Ona tili"ga lingvistik ta'limning tarkibiy komponenti sifatida shaxs lisoniy madaniyatini shakllantirish, tilga muloqotning

asosiy quroli, inson faoliyatining turli sohalarida muloqotni amalga oshirish va bilim olishning asosiy vositasi hamda ijtimoiy-madaniy hodisa ekanligini e'tirof etgan holda unga ongli munosabatni tarbiyalash, kommunikativ kompetentsiyani shakllantirish va takomillashtirish kabi fazifalar yuklatilgan.

Yurtimizning umumiy o'rta ta'lim maktablarida ona (o'zbek) tili o'qitishning umumiy maqsadlarini amalga oshiradi. Shundan kelib chiqib o'quvchi:

1. Ona tilini milliy va umuminsoniy qadriyat ekanligini e'tirof etishi kerak;
2. Ona tili - milliy-madaniy hodisa. Uning o'zbek xalqining ma'naviy qadriyati ekanligini asoslovchi ma'lumotlarni o'rganish;
3. Ona tilining fonetik va adabiy me'yorlarini o'zlashtirish;
4. Ona tilining lug'at boyligi hamda grammatik tuzilishini o'rganish;
5. Ona tilida nutq faoliyatining barcha turlari - og'zaki va yozma nutq madaniyatini egallashdan iboratdir.

Ona tilining ta'lim uchun muhimligi shundaki, u o'quvchilarning lisoniy, nutqiy fikrlash, intellektual, ma'naviy, axloqiy va estetik rivojlanishining yaxlitligini ta'minlaydi.

O'zbek milliy ta'limida ona tilini o'qitish amaliyotida turli - ijtimoiy-iqtisodiy va psixologiya sohaları bilan bog'liq ayrim o'quv muammolari ham yuzaga chiqmoqdaki, bularning ijobiy yechimi - filologik fanlar tizimiga kiruvchi ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablarda o'zbek, rus, chet tillari hamda milliy maktablarda rus va chet tillarini o'qitish metodikalarini bir maqsad asosida birlashtirish va boyitish jarayonini amalga oshirishdan iborat deb bilamiz.

Ona tili darslarining maqsadlarini belgilashda lingvistik va kommunikativ kompetensiyalarni milliy mentalitet negizida shakllantirish va takomillashtirishni inobatga olishni taqozo etadi. Demak darsning lisoniy materialini milliy tabiatga ega bo'lishi juda muhimdir. Chunki o'quvchilar o'zlari egallayotgan tillar tarixi, til vakillarining hayot tarsi bilan qiziqadi, o'z hayot va turmush tarzini taqqoslaydi, tahlil qiladi, xulosa chiqaradi. Bularning hammasi unga va tillarni o'rganish uchun qo'shimcha turtki bo'lib xizmat qiladi.

O'qituvchidan asosiy talab shuki, asosiy e'tiborini nutq faoliyatining barcha turlarini o'zaro bog'liq holda o'rgatishga qaratishi lozim. O'quvchilarning bilimlarini mavzuga oid savollar yoki mashqlar yordamida yangilab boradi.

O'qituvchiga muammoli vaziyatlarni hal qilish, lisoniy hodisalarni kuzatish, olingan ma'lumotlarni tahlil qilish va sintez qilish dastur materialini o'zlashtirishga yordam beradi. U o'quvchilarni o'quv materialini mustaqil o'zlashtirishni, dastlabki mustaqil xulosalar chiqarishni taklif qilishi va shundan keyingina o'zlashtirgan bilimlarini darslik bilan taqqoslab tekshirishga undashi kerak.

Shu bilan birga darslarda foydalaniladigan matnlarni tanlash ham o'qituvchidan alohida mas'uliyatni talab etadi. U har bir matnning mazmun

tomonni - o'quv va badiiy talablarga muvofiq kelishi, uslubiy maqsadining aniqlashtirilganligi, o'quvchilarning yosh fiziologiyasiga mos kelishini nazorat ostiga olishi kerak bo'ladi.

#### Xulosa

Ta'limning o'quvchiga yo'naltirilganligi darsning maqsadi va kutilayotgan natijalarini belgilashdan boshlanadi. O'qituvchi har bir dars boshida o'quvchilarga darsda o'zining rivojlanishi uchun nimalarni o'rganishi, darsdan tashqari holatlarda, kundalik turmushida nimalarga qodir bo'lishini ta'minlovchi yo'l-yo'riqlarni ko'rsatib o'tishi lozim. Shu bilan birga, darsning nutq o'stirishga qaratilgan mavzusini ko'rsatishi va uqtirishi kerak. Natijada o'qituvchi ham har bir darsning maqsadlarini aniqlab oladi, o'quv faoliyatini faollashtira oladi va o'quvchilarni aniq belgilangan yakuniy natijalar bilan ishlashga yo'naltira olish qobiliyatini takomillashtiradi. Darsni rejasini tuzishda nutqiy mashqlar nazarda tutiladi, uning davomida o'quvchilar ona tilidagi nutqini to'g'rilay oladilar, balki til va nutq mavzulariga doir bilimlarni o'zlashtirishga hozirlanadilar.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A. Fulomov. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. - T.: O'qituvchi, 1992.
2. B. Maqulova, S. Sa'diyeva. Sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari (1-sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma). - T.: O'qituvchi, 1997.
3. J. G'. Yo'ldoshev, S. A. Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari. - T.: O'qituvchi, 2004.
4. Y. Abdullayev. Eski maktabda xat-savod o'rgatish. - T.: O'qituvchi, 1960.
5. M. Xudoyberganova. Bayonlar to'plami. - T., 1995.
6. R. Safarova. Nutqiy ko'nikmalarni tekshirish asoslari. //Boshl. ta'l. jurnali. - T., 1997. - №5. 10-11-betlar.
7. S. Matchonov, X. G'ulomova. Nutq madaniyati. //Boshl. ta'l. jurnali. □ Toshkent, 2000. - №1. 8-10-betlar.
8. S. Matchonov, X. G'ulomova. Hikoya qanday o'tiladi? //Boshl. ta'l. jurnali. - T., 2004. - №6. 26-27-betlar.